



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 93 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli | 20 |
| Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich | |
| BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili | 26 |
| Usmonov F.B., Rajabova A.Sh. | |
| Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish | 31 |
| Yuldashov Isomiddin Sidiqovich | |
| Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli..... | 35 |
| Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi | |
| Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху | 40 |
| Явкачев Шохзод Зайниддин углы | |
| Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector | 49 |
| Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi | |
| Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari..... | 56 |
| Djalilov G'ayrat Qaxramanovich | |
| Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises..... | 60 |
| Matchanov Umirzak Seytjanovich | |
| Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari | 66 |
| Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich | |
| O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari | 71 |
| Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich | |
| Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане..... | 76 |
| Salimov Sherzod Baxtiyorovich | |
| Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan | 81 |
| S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva | |
| Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari..... | 88 |
| Muxamedov Ravshan Zafarovich | |



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUSTAQILLIKNING KUTILAYOTGAN ISTIQBOLLARI VA HOZIRGI NATIJALARI

Muxamedov Ravshan Zafarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: RMZTfi@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-5338-1069>

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning joriy etilishi, uning hozirgi natijalari va kelajakdagi istiqbollarini o'rganadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda qabul qilingan PQ-61-son qarori asosida 40 ta davlat oliy ta'lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berildi. Bu ularga o'z daromad va chiqimlarini mustaqil boshqarish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash imkonini yaratdi. Gruzija tajribasi esa shaffof moliyalashtirish mexanizmlari va davlat tomonidan tenglashtiruvchi yordam orqali xavflarni minimallashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Maqolada kelajakda moliyaviy mustaqillik berilgan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari xalqaro raqobatbardoshlikka olib chiqilishi, innovatsiyalar rivojlanishi va xorijiy hamkorlik kengayishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bu jarayonda davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash hamda nazorat mexanizmlarini mustahkamlab borish zarurligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, moliyaviy mustaqillik, davlat budjeti, shartnoma to'lovlari, daromad diversifikatsiyasi, moddiy-texnik baza, ta'lim sifati, tengsizlik, Gruzija tajribasi, xalqaro hamkorlik, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article examines the implementation of financial autonomy in higher education institutions in Uzbekistan, its current results, and future prospects. Based on the Presidential Resolution № RP-61 adopted on December 24, 2021, 40 state universities were granted financial independence. This enabled them to manage their income and expenditures independently, diversify revenue sources, and strengthen their material and technical base. The experience of Georgia shows that risks can be minimized through transparent financing mechanisms and equalizing state support. The article notes that in the future, financially autonomous universities in Uzbekistan may achieve international competitiveness, promote innovation, and expand foreign cooperation. At the same time, it emphasizes the need for continued government support and strengthening of control mechanisms in this process.

Key words: higher education institutions, financial autonomy, state budget, tuition fees, income diversification, material and technical base, education quality, inequality, Georgian experience, international cooperation, innovation, competitiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются внедрение финансовой самостоятельности в высших учебных заведениях Узбекистана, ее текущие результаты и будущие перспективы. На основании постановления Президента № ПП-61 от 24 декабря 2021 года 40 государственным вузам была предоставлена финансовая самостоятельность. Это позволило им самостоятельно управлять доходами и расходами, диверсифицировать источники доходов, а также укреплять материально-техническую базу. Опыт Грузии показывает, что риски можно минимизировать за счет прозрачных механизмов финансирования и выравнивающей государственной поддержки. В статье подчеркивается, что в будущем финансово самостоятельные университеты Узбекистана могут достичь международной конкурентоспособности, способствовать развитию инноваций и расширять зарубежное сотрудничество. Вместе с тем отмечается необходимость дальнейшей государственной поддержки и усиления механизмов контроля в этом процессе.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, финансовая самостоятельность, государственный бюджет, договорные платежи, диверсификация доходов, материально-техническая база, качество образования, неравенство, опыт Грузии, международное сотрудничество, инновации, конкурентоспособность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimi so'nggi yillarda sezilarli islohotlardan o'tmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli¹ 40 ta davlat oliy ta'lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berishga qaratilgan chora-

1 <http://lex.uz/uz/docs/-7386917>



tadbirlarni joriy etdi. Ushbu qaror muassasalarga o'z daromadlarini mustaqil boshqarish, shartnoma to'lovlarini bozor talablariga moslashtirish hamda qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilish imkonini yaratdi.

Global miqyosdagi raqobat sharoitida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslari va ularni boshqarish tizimi mamlakatlarning iqtisodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida (YaIM) oliy ta'limning kompleks rivojlanishiga kiritilayotgan investitsiyalar ulushini oshirib, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish imkoniyatiga ega innovatsion tarmoqlarni rivojlantirishga zamin yaratmoqda.

Ta'lim xizmatlari bozori jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 6 foizidan ortig'ini tashkil etib, dunyodagi eng yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Rasmiy manbalarga ko'ra, 2021-yilda jahon ta'lim xizmatlari bozorining hajmi 6,5 trillion dollarga yetgan, shundan global ta'lim texnologiyalari (EdTech) bozori 270 milliard dollarni tashkil etib, umumiy bozorning atigi 4 foizdan sal ko'proq qismini egallagan. 2022-yilda esa EdTech bozori 12 foizga o'sib, onlayn ta'lim bozorining ulushi umumiy bozorning 5,5 foiziga yetgan. Ushbu o'sish oliy ta'lim tizimining onlayn ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Ushbu maqola O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimidagi hozirgi holatni, shu jumladan global ta'lim bozori tendensiyalari hamda EdTech sohasidagi o'zgarishlar ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – moliyaviy mustaqillikning oliy ta'lim muassasalarining barqarorligi va ta'lim sifatiga ta'sirini baholash, shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilishdan iborat.

Tadqiqotda hujjatlar tahlili, statistik tahlil va solishtirma tahlil usullari qo'llanilib, moliyaviy resurslarning shakllanishi va ulardan foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda qo'shimcha choralar ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ta'lim sifatida tengsizlik xavfi kabi potentsial muammolar ham muhokama qilinadi. Ushbu ish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy mustaqillik masalasi oliy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida jahon ilmiy doiralarda keng o'rganilmoqda. John Fielding oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning amaldagi natijalari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. U Buyuk Britaniya universitetlari misolida moliyaviy erkinlikning oshishi ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va xalqaro reytingdagi o'rnini mustahkamlashini ko'rsatgan. David Palfreyman va Ted Tapper esa universitetlar o'z mablag'larini boshqarish huquqiga ega bo'lganda, ular moliyaviy resurslardan samaraliroq foydalanishini, ayniqsa raqobatbardosh grantlar jalb etilishi va sanoat bilan hamkorlik rivojlanishini ta'kidlagan.

O'zbekiston kontekstida Bobomurodov A. universitetlarning moliyaviy mustaqillikka o'tishi ta'limning barqarorligi va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda ijobiy omil bo'layotganini qayd etgan. Lekin u muassasalar o'rtasidagi moliyaviy tafovutlar kuchayishi xavfiga ham e'tibor qaratgan. Jo'raev Sh. esa oliy ta'limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari, jumladan, byudjet mablag'larini to'lov-kontrakt tushumlari bilan uyg'unlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni taklif etgan.

Shuningdek, Salmi Jamil xalqaro tajribada moliyaviy mustaqillikning muvaffaqiyati asosan hukumatning tartibga soluvchi roli, grantlar va subvensiyalarni taqsimlash mexanizmlarining adolatligi, shuningdek, universitetlar boshqaruv organlarining professionalligi bilan belgilanadi degan xulosaga kelgan. Andreas Schleicher OECD doirasidagi tahlillarida moliyaviy mustaqillikning asosiy istiqboli sifatida universitetlarning bozor ehtiyojlariga tez moslashishi, malakali kadrlar tayyorlashda sifatni oshirish, shuningdek, innovatsion faoliyatni kengaytirishni ko'rsatgan.

O'zbekiston Prezidentining 2021-yildagi PQ-61-son qarori asosida moliyaviy mustaqillik bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. G'ulomov A. oliy ta'lim muassasalari mablag' manbalarini diversifikatsiya qilishi, grantlar, xususiy sektor buyurtmalari va tijorat faoliyati orqali yangi daromad oqimlarini shakllantirishi zarurligini ta'kidlagan.

Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy mustaqillik oliy ta'lim muassasalari rivojlanishining asosiy omili bo'lib, u nafaqat moliyaviy barqarorlikni oshiradi, balki ta'lim sifatini, ilmiy-innovatsion faoliyatni va xalqaro reytinglardagi o'rinni mustahkamlash uchun kuchli poydevor yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimini, shuningdek global ta'lim bozori tendensiyalari, xususan ta'lim texnologiyalari (EdTech)



sohasidagi o'zgarishlarning ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda muassasalarga berilgan moliyaviy vakolatlar, yangi moliyalashtirish mexanizmlari va nazorat tuzilmalari kabi asosiy jihatlar ko'rib chiqiladi. Tahlillar moliyaviy mustaqillikning hozirgi holatini va uning ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi hamda moddiy-texnik bazasiga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot oliy ta'limni moliyalashtirish va moliyaviy mustaqillik bo'yicha ilmiy adabiyotlarga tayanib, nazariy hamda solishtirma tahlilni qo'llaydi. O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan shunga o'xshash moliyaviy mustaqillik islohotlari bilan solishtiriladi. Bu orqali muvaffaqiyat omillari, mumkin bo'lgan to'siqlar va eng yaxshi amaliyotlar aniqlanadi. Ushbu ikki tomonlama yondashuv – hujjatlar tahlili va nazariy-solishtirma tadqiqot – O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik tashabbusining hozirgi ta'siri va kelajakdagi istiqbollarini har tomonlama baholashni ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi – islohotlarning ta'lim sifati, raqobatbardoshlik va infratuzilma rivojlanishiga ta'sirini aniqlash, shu bilan birga kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini bashorat qilishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli² qarori asosida 40 ta davlat oliy ta'lim muassasasi moliyaviy mustaqillik huquqiga ega bo'ldi. Bu muassasalarga o'quv xizmatlari uchun narxlarni bozor talablariga moslashtirish, mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish, mulk va aktivlarni boshqarish hamda ulardan tushgan daromadlarni rivojlanish fondlariga yo'naltirish huquqi berildi. Shuningdek, muassasalar o'z daromad va chiqim budjetlarini Moliya vazirligining ruxsatisiz o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ldi, bu esa resurslarni samarali taqsimlash va tezkor qaror qabul qilishni osonlashtirdi.

Davlat budjeti oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. PQ-61-son qaror bo'yicha davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash, laboratoriyalarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash va infratuzilmani rivojlantirish uchun ishlatilmoqda. Shunga qaramay, davlat tomonidan ajratilgan rivojlanish fondlari moddiy-texnik bazani mustahkamlashda muhim hissa qo'shmoqda.

Moliyaviy mustaqillik muassasalarga moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratdi. PQ-61-son qaror bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bo'xona bo'jlaridan ozod qilingan mablag'larni o'quv va ilmiy adabiyotlar, laboratoriya jihozlari xarid qilish uchun ishlatilmoqda. Tibbiyot sohasi oliy ta'lim muassasalariga esa klinikalarda kapital va joriy ta'mirlarni amalga oshirish uchun byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'lar ajratilmoqda, bu esa ta'lim sifati va ilmiy tadqiqotlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Moliyaviy mustaqillik bilan birga muassasalarga qator majburiyatlar yuklatildi. Ular choraklik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlarini joriy etish, shuningdek mablag'lardan shaffof foydalanishni ta'minlashlari kerak. Bu majburiyatlar islohotlarning samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslardan noto'g'ri foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha Jahon Banki loyihalari natijalari (2017–2022)

| Loyiha nomi | Davri | Moliyalashtirish (AQSh dollari) | Natijalar |
|---|-----------|--|---|
| Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash | 2017–2022 | 17,6 mln (o'quv laboratoriyalari uchun) + 2,3 mln (axborot kommunikatsiya texnikalari uchun) | - 40 ta OTM 17,6 mln dollarlik 112 ta o'quv laboratoriya to'plamlari bilan jihozlandi. - 86 ta OTM 2,3 mln dollarlik axborot kommunikatsiya texnikalari bilan ta'minlandi. - 2019–2021-yillarda "Elsevier" elektron bazasidagi 9,08 ming onlayn kitob va 704,3 ming onlayn jurnallardan foydalanish imkoniyati yaratildi. - Oliy ta'limni boshqarishning axborotlashtirilgan tizimi ("HEMIS") joriy etildi va barcha davlat OTMlarida qo'llanildi. |
| O'zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish | 2021–2026 | 50,0 mln | - Loyiha muvaffaqiyatli davom etmoqda, moddiy-texnik baza va innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan. |

Manba: Tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hukumat Portali malumotlari asosida tayyorlandi (<https://gov.uz/oz/news/view/5847>).

2 <http://lex.uz/uz/docs/-7386917>



Moliyaviy mustaqillik va Jahon Bankining Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi ishtirokida 2017–2022-yillarda amalga oshirilgan “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash” loyihasi muassasalarga o’quv xizmatlari sifati va narxlarini bozor talablariga moslashtirish orqali talabalarni jalb qilish hamda daromadlarni oshirish imkonini bermoqda. Bu esa universitetlar o’rtasida raqobatni kuchaytirishi va ta’lim sifatini oshirishi kutilmoqda. Masalan, bozor talablariga mos narx belgilash muassasalarga qo’shimcha resurslar jalb qilishda yordam beradi.

Innovatsiyalar va tadqiqotlar. Moliyaviy mustaqillik muassasalarga innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. PQ–61-son qaror bo’yicha muassasalar o’z innovatsion fondlarini mustaqil ravishda boshqarishi mumkin, bu esa ilmiy kashfiyotlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Moliyaviy mustaqillik, shuningdek, muassasalarga xorijiy professor-o’qituvchilarni jalb qilish, xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb etish imkonini yaratadi. Bu O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarining xalqaro standartlarga moslashishiga va global ta’lim bozorida raqobatbardosh bo’lishiga yordam beradi.

Uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy mustaqillik muassasalarining davlat budjetiga bo’lgan qaramligini kamaytirishi va iqtisodiy o’zgarishlarga moslashish imkonini berishi kutilmoqda. Bu muassasalarni barqaror va mustaqil qiladi, ammo barcha muassasalar teng darajada foyda olishi uchun qo’shimcha choralar talab etiladi.

Moliyaviy mustaqillikning salbiy tomonlari sifatida muassasalar o’rtasida daromad farqlari yuzaga kelishi mumkin. Ba’zi muassasalar shartnoma to’lovlarini yoki boshqa manbalardan yetarlicha daromad jalb qila olmasligi ta’lim sifatida tengsizlikka olib kelishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun davlat tomonidan qo’shimcha qo’llab-quvvatlash va tenglashtirish mexanizmlari zarur.

Gruziya oliy ta’limni moliyalashtirishda muvaffaqiyatli islohotlar o’tkazgan mamlakat sifatida misol keltiriladi. 2014-yildan boshlab Gruziya milliy imtihon natijalariga asoslangan talabalar uchun kredit tizimiga o’tdi. Bu tizim korrupsiyani kamaytirishga, universitetlar o’rtasida raqobatni oshirishga va ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan guruhlariga ta’lim imkoniyatlarini taqdim etishga yordam berdi. O’zbekiston ushbu tajribadan foydalanish orqali moliyaviy mustaqillikka erishishda tez samaraga yetishi mumkin.

Dunyo miqyosida oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish tendensiyasi keng tarqalmoqda. Bu muassasalarga bozor talablariga moslashish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Mustaqillik bilan birga javobgarlik va shaffoflikni ta’minlash uchun qat’iy nazorat mexanizmlari talab etiladi, bu O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda qabul qilingan PQ–61-son qarorida ham aks etgan.

Muhokamalar.

Moliyaviy mustaqillik O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni yaxshilash va moddiy-texnik bazani mustahkamlashda muhim yutuqlarga erishmoqda. Moddiy-texnik bazani zamonaviy jihozlar bilan ta’minlashda tibbiyot sohasi bo’yicha oliy ta’lim muassasalarida klinikalarni ta’minlash uchun qo’shimcha mablag’lar ajratildi. Shuningdek, Gruziya va boshqa davlatlar tajribasi ham muhim misol bo’lib, u yerda milliy imtihon natijalariga asoslangan kredit tizimi universitetlar o’rtasida raqobatni oshirish va korrupsiyani kamaytirishda samarali bo’lgan. O’zbekiston ushbu modeldan foydalanib, shartnoma to’lovlariga qaramlikni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga erishishi mumkin.

Moliyaviy mustaqillikning kelajakdagi istiqbollari muassasalar o’rtasidagi moliyaviy farqlar tufayli ta’lim sifatida tengsizlik xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Agar ba’zi muassasalar yetarlicha daromad jalb qila olmasa, bu ta’lim sifati va infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlarni keltirib chiqarishi mumkin. Gruziya tajribasi shuni ko’rsatadiki, davlat tomonidan tenglashtiruvchi moliyalashtirish mexanizmlari va shaffof nazorat tizimlari orqali bunday xavflarni minimallashtirish mumkin.

O’zbekiston uchun kelajakda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo’shimcha qo’llab-quvvatlash orqali moliyaviy mustaqillik samaradorligini oshirish mumkin. Bu islohotlar nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarini global raqobatbardoshlikka olib chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning joriy etilishi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda qabul qilingan PQ–61-son qarori asosida ta’lim tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim qadam bo’ldi. Ushbu islohotlar oliy ta’lim muassasalariga o’z daromad va chiqimlarini mustaqil boshqarish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, moddiy-texnik bazani zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Shuningdek, moliyaviy mustaqillikning to’liq muvaffaqiyati bir qator muammolarni hal qilishga bog’liq. Xususan, muassasalar o’rtasidagi moliyaviy farqlarni bartaraf etish va ta’lim sifatida tenglikni ta’minlash dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda. Aks holda, daromad tengsizligi tufayli ta’lim sifatida farqlar yuzaga kelishi mumkin.

Gruziya tajribasi bu borada foydali yo’l-yo’riq bo’lib xizmat qiladi. Gruziya shaffof moliyalashtirish mexanizmlari va davlat tomonidan tenglashtiruvchi yordam orqali korrupsiyani kamaytirish hamda universitetlar



o'rtasida raqobatni oshirishda muvaffaqiyatga erishgan. O'zbekiston ham ushbu modeldan foydalangan holda islohotlarni yanada samarali amalga oshirishi mumkin.

Kelajakda moliyaviy mustaqillik O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini xalqaro ta'lim bozorida raqobatbardosh qilish, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va xorijiy hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va nazorat mexanizmlarini mustahkamlash orqali ushbu islohotlarning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlash zarur.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim tizimining moliyaviy mustaqillik orqali zamonaviy talablarga moslashishdagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatib, ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash yo'lida qo'shimcha choralar ko'rish muhimligini ta'kidlaydi. Xalqaro tajribalar, xususan Gruziya modeli, bu jarayonda muhim yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-7386917>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy hisobotlari.
3. Gruziya oliy ta'lim tizimidagi moliyalashtirish islohotlari bo'yicha maqola, IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020.
4. Jahon Banki. (2022). Oliy ta'limni moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar: Gruziya tajribasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Davlat byudjeti va oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan mablag'lar.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi bo'yicha statistik ma'lumotlar.
7. Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanish tizimini boshqarish amaliyotining tahlili (PhD Karlibaeva Gulshat. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2024).
8. 30 IIASA, VID/OAW, WU. <https://habr.com/ru/articles/675612/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
